

ISSN: 2181-4562

DOI Journal 10.56017/2181-4562



IMFAKTOR
PAGES

JOCAA

МАДАНИЈАТ ВА САНЈАТ

Journal of Culture and Art

Volume I, Issue 4

JUNE | 2023

КУЛТУРА И ИСКУССТВО



ISSN: 2181-4562
DOI Journal 10.56017/2181-4562

МАДАНИЯТ ВА САЊАТ ЖУРНАЛИ

I-ЖИЛД, 4-СОҢ

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО

ТОМ-I, НОМЕР-4

JOURNAL OF CULTURE AND ART

VOLUME-I, ISSUE-4

ТОШКЕНТ – 2023

МАДАНИЯТ ВА САНЪАТ ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО | JOURNAL OF CULTURE AND ART

№ 4 (2023) DOI <http://dx.doi.org/10.56017/2181-4562-2023-4>

БОШ МУҲАРРИР:

Халикулова Гўзал Эркиновна

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти профессори в.б., Санъатшунослик фанлари номзоди

МАСЪУЛ МУҲАРРИР:

Мелиқўзиев Иқбол
Мамасодиқович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти кафедра мудир, профессор в.б., Санъатшунослик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

ТАҲРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ:

Касимов Нозим Козимович

Маданият ва туризм вазирлиги “Таълим ва илм-фанни ривожлантириш бошқармаси” бошлиғи, профессор Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти Нукус филиали “Санъатшунослик” факультети декани, Тарих фанлари номзоди, профессор

Ходжаметова Гулчира
Илишевна

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти кафедра мудир, доцент, Санъатшунослик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

Абдувоҳидов Фахриддин
Мелигалиевич

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти “Саҳна нутқи” кафедраси доценти

Умаров Мамур
Боташикович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти “Санъатшунослик ва маданиятшунослик” кафедраси профессори в.б., фалсафа фанлари номзоди

Худоев Ғани Муҳаммадович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти кафедра мудир, Санъатшунослик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

Бердиханова Шахида
Нурлыбаевна

Юнус Ражабий номидаги Ўзбек миллий мусиқа санъати институти “Ўзбек мақоми тарихи ва назарияси” кафедраси мудир, санъатшунослик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

Дўсанов Раҳимжон
Раимқулович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти, “катта ўқитувчи”, мустақил тадқиқотчи

Суннатиллаев Асатилло
Суннатович

Юнус Ражабий номидаги Ўзбек миллий мусиқа санъати институти “Илмий тадқиқотлар, инновациялар ва илмий-педагогик кадрлар тайёрлаш” бўлими бошлиғи, мустақил изланувчи (PhD)

Мазкур фанлараро илмий-амалий журнал Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги томонидан 2023 йил 24 февраль куни № 065356-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Саҳифаловчи/Page Maker/Верстка: Абдураҳмон Хасанов

Таҳририят манзили: <https://imfaktor.uz>, 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2/27-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55, E-mail: tahririyat@imfaktor.uz

© IMFAKTOR Pages, 2023 йил.

© Муаллифлар жамоаси, 2023 йил.

МАДАНИЯТ ВА САЊАТ ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО | JOURNAL OF CULTURE AND ART

QODIROV Ma'ruf

*Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti
"Doston ijrochiligi" kafedrasida o'qituvchisi*
<https://doi.org/10.5281/zenodo.8070208>

IJRONING MOHIYATINI OCHIB BERISHDA TALAFFUZNING O'RNI

ANNOTATSIYA

Talaffuz asarning g'oyaviy mohiyatini ochib berishda muhim rol o'ynaydi. Doston ijrochiligida dostonning mohiyatini ochib berishda musiqiy va adabiy matn bir xil ahamiyatga ega. Shuning uchun ham darsda o'tilayotgan mavzuni talaba nazdida yorqin ifoda etilishida so'zlarni to'g'ri talaffuz ettirish talabaning asosiy vazifalaridan bo'lmog'i lozim. Ushbu maqolada ijroning mukammal mohiyatini ochib berishda talaffuzning o'rni va ahamiyati haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: talaffuz, ijro, diksiya, artikulyatsiya, nafas, ovoz, mashq, doston, musiqiy va adabiy matn, so'zlarni to'g'ri talaffuz ettirish.

КАДИРОВ Маъруф

*Узбекский национальный институт музыкального
искусства имени Юнуса Раджаби
Преподаватель кафедры "Достон ижрочилиги"*

РОЛЬ ПРОИЗНОШЕНИЯ В ИСПОЛНЕНИИ

АННОТАЦИЯ

Произношение играет важную роль в раскрытии художественной сущности произведения. Музыкальный и литературный текст одинаково важны в раскрытии сущности эпоса в исполнении эпоса. Именно поэтому необходимо правильно произносить слова, чтобы ясно донести до ученика изучаемый на уроке предмет. В данной статье рассматривается значение и значение произношения в раскрытии совершенной сущности исполнения.

Ключевые слова: произношение, исполнение, дикция, артикуляция, дыхание, голос, упражнение, эпос, музыкально-литературный текст, правильное произношение слов.

KADIROV Maruf*Uzbek National Institute of Music art named after Yunus Rajabi
Lecturer of the department "Doston Izhrochiligi"***THE ROLE OF PRODUCTION IN PERFORMANCE****ANNOTATION**

Pronunciation plays an important role in revealing the artistic essence of a work. Musical and literary text are equally important in revealing the essence of the epic in the performance of the epic. That is why it is necessary to pronounce words correctly in order to clearly convey to the student the subject studied in the lesson. This article discusses the meaning and significance of pronunciation in revealing the perfect essence of performance.

Keywords: pronunciation, performance, diction, articulation, breath, voice, exercise, epic, musical and literary text, correct pronunciation of words.

Ijro badiiy jihatdan yuksak bo'lishi uchun unda talabaning diqqati, sezgisi, idroki, tafakkuri, tasavvuri, va emotsiyasi hamda eng asosiysi ovoz ruhiyati faol ishtirok etishi zarur. Bundan tashqari uning shaxsiy ovozi sifati, tembrining go'zal va boyligi, pardalarning (intonatsiyasi) tozaligi, musiqiy qobiliyati va iqtidori, quvnoqligi va jo'shqinligi, dunyoqarashi, erkin fikrlashi, xarakteri va mintaliteti aks etmog'i lozim.

Estetik madaniyat tarbiyasida musiqaning o'rni juda katta ahamiyatga ega. Musiqa o'z tabiatiga ko'ra estetik madaniyatning asosidir. Musiqa va adabiyotning ijtimoiy hayotda tutgan beqiyos o'rni qadimlardan ma'lum. U inson dunyoga kelishi bilan ona allasidan boshlab, to umrining oxirigacha quvonchli va tashvishli kunlarida hamrox bo'ladi. Ayni bir paytda musiqa insonni tarbiyalaydi, yaxshilikka undaydi, ozod va obod hayot uchun yashashga o'rgatadi.

Gap o'zbek baxshi ijrochilik san'ati haqida ketar ekan, uning inson his-tuyg'usiga, kayfiyatiga katta ta'sir etishi – insonga estetik sifatning qay darajada jamlanganligiga bog'liq bo'ladi. Har qanday insonda musiqiy layoqat bo'lishi tabiiy, musiqa yangraganda kishi o'z-o'zidan musiqa ohangiga beriladi, uni anglaydi va qalbdan his etadi. Endi musiqa olami mutaxassislarida ushbu jarayon kuchliroq bo'lib, ular musiqani nazariy va amaliy jihatdan chuqur biladi hamda musiqaga oid terminlarni tushunadi. Ularda musiqiy layoqat musiqa shinavandalaridan ko'ra ko'proq, ya'ni kasbiy faoliyatlari nuqtai nazaridan olib qaralganda kuchli bo'ladi. Ular har qanday ohangni tinglaganlarida u qaysi pardada ekanini yoki qanday tahlil qilishni anglay oladilar.

Doston ijrochiligi mahoratini egallashda bir-biri bilan uzviy aloqador, lekin bir-biriga o'xshamagan, ayni chog'da, bir-birini to'ldiruvchi nutq texnikasi komponentlarini mukammal bilib olish, unga doimo amal qilish lozim bo'ladi.

Bular:

- 1) artikulatsiya;
- 2) diksiya;
- 3) nafas;
- 4) ovoz;

Talaffuz arabcha "talaffaza" fe'lidan olingan bo'lib, "otmoq" ma'nosini beradi. Bunga dalil sifatida quyidagi misolni keltiramiz. Arablarda *akaltu attamrata va lafaztu annavota* degan maqol bor. Buning ma'nosi hurmoni yedim va danagini otib yubordim demakdir. Maqoldagi *lafaztu* kalimasi-so'zi otdim, aniqrog'i, og'izdan otdim ma'nosini bildiradi [3, B.30].

Asarning adabiy matni so'zlarini tinglovchilarga aniq yetkazib berish vositasi talaffuz deyiladi. Talaffuz asarning goyaviy mohiyatini ochib berishda muhim rol o'ynaydi.

Agar soʻzlar poetik fikrni aniqlashtirsa, musiqa ularni atroflicha emosional buyoqlar bilan toʻldiradi, chuqurlashtiradi. Demak, yakkaxon ijrochilikda soʻz va musiqa bir-birini toʻldiradi va badiiy obraz yaratadi. Yaxshi soʻz talaffuzi texnikasiga ega boʻlish yakkaxon ijrochilikda juda ham zarur hisoblanadi. Asarning matnini toʻgʻri va aniq talaffuz qilish uchun soʻzlardagi mantiqiy urgʻularga, soʻzning jonli tildagi talaffuz qoidalariga ahamiyat berish lozim.

Talaffuz organlari - lab, jagʻ, tilning nutq jarayonidagi turlicha harakatiga artikulyatsiya deyiladi. Artikulyatsion mashqlar, asosan, talaffuz aʼzolarining faoliyatini faollashtirish hamda keyingi ish jarayoni boʻlgan nutq tovushlarining aniq talaffuzini taʼminlashni koʻzda tutadi. Shuning uchun bu mashqlarga ehtiyoj har bir talaba yoki ijrochining zaruriyatiga aylanishi, koʻp vaqt sarflanmasa ham, muntazam qaytarilib turilishi lozim. Tovushlar va soʻzlarning talaffuz etilishiga diksiya deyiladi. Aniq va ravshan talaffuz yaxshi diksiya, soʻzning yamlanishi, ifodaviy noaniqlik kabi salbiy xususiyatli talaffuz esa yomon diksiya deb yuritiladi [3, B.33].

Artikulyatsion mashqlarni bajarishda zoʻrma-zoʻrakilik va kuchanishga yoʻl qoʻymaslik kerak, aksincha, moʻtadillik va erkinlikni taʼminlab, mashqlarni eng oddiy, soddasidan murakkabga tomon muntazamlikda oʻzlashtirish orqali nutq organlarini chiniqtirish va oʻrgatish yoʻlidan borish kerak. Aks holda mashqlar zarar keltirishi ham mumkin.

Bizning tilimizda soʻzni toʻgʻri aytish maʼnosida toʻla ishlatiladigan bu kalimaning zamiridagi “otish”, “otmoq” maʼnolariga asoslanib, ashula yoki qoʻshiq matnidagi har bir soʻz xonanda ogʻzidan otilib chiqishi kerak, degan xulosa chiqadi. Faqat u, yaʼni, soʻz xurmo danagi yangligʻ yerga emas, balki qalbgʻa otilishi lozim.

Xoʻsh, nima uchun aynan oʻqib bering deyiladi? Ashula yeki gʻazalni aytib bering desa boʻladi-ku. Mantiq shundaki, gʻazal shunchaki aytilmaydi. Chunki, u oddiy soʻzlar yigʻindisi emas, balki, ishtibohlar, tazminlar va shunga oʻxshash badiiy toʻqimalarning afsunkor majmuasidir. Demak, u dastlab yozuvga qarab, yod olingach esa koʻngilga qarab ogʻzaki tarzda oʻqiladi. Hatto sheʼriy tarzda oʻqilganda ham gʻazal yoki ashula matni shunday ifodalantirilishi kerakki, undagi har bir soʻz puxta va aniq talaffuz etilishi kerak. Toki bu soʻzlarning har biri alohida-alohida va yaxlit tarzda ogʻizdan otilib chiqib, shinavanda qalbidan joy olsin.

Doston ijrochiligida dostonning mohiyatini ochib berishda musiqiy va adabiy matn bir xil ahamiyatga ega. Shuning uchun ham darsda oʻtilayotgan mavzuni talaba nazdida yorqin ifoda etilishida soʻzlarni toʻgʻri talaffuz ettirish talabning asosiy vazifalaridan boʻlmogʻi lozim. Dars jarayonida talaba dastlab oʻzi oʻrganadigan dostonning qaysi maktabga xosligini bilishi lozim. Maʼlumki, oʻzbek tilida “I”, “o” tovushlari ikki xil boʻladi. Bu tovushlarni oddiy qilib, uzun “I” yoki qisqa “I”, uzun “o” yoki qisqa “o” deb ifodalash ham mumkin. Yuqorida zikr etilgan barcha illatlarni dars davomida kamaytirib borish talaffuzning tiniqligini taʼminlaydi.

Talabning nutqida uning tilga beparvoligi yoki u mansub shevaning xususiyatlari zikr etilgan tovushlarning chalkashligiga sabab boʻlishi mumkin. Bundan tashqari baʼzi talabalar tomonidan “r” tovushini taxminan “d” tovushiga yaqin aytishi, kuylash jarayonida yuqori pardalarda “n” tovushini “I” tovushiga yaqin aytilishi mavjud. Tildagi bu kamchiliklarni bartaraf etish uchun talaba bilan alohida mashqlar qilish talab etiladi. Mashqlarda “n” va “r” tovushlar ishtirokidagi soʻzlarni koʻproq kuylatish talab etiladi. “S” va “z” tovushlarini yaxshi talaffuz eta olmaydigan talabalar ham uchraydi. Bu illatlarni tilni qattiq tanglay ustiga toʻgʻri qoʻyilishi, lab holatini tuzatish bilan bartaraf etish mumkin. Biroq, afsuski, ahyon-ahyonda vrach defektolog xizmatidan foydalanishga ham toʻgʻri keladi.

Talaffuzning chiroyliligi, tiniqligi, bu unli va undosh tovushlarning ovozda toʻgʻri ifoda etilishi, tovushlarning oddiy suhbat yoki kuylayotgandagi tiniq ifodasi, ovozning ijrochilik talabi qoidalariga binoan shakllanishi demakdir.

Biz doston ijrochiligi fanidan ta'lim olayotgan talabalar yonida ikki narsani doim bo'lishini xohlardim. Biri ko'zgu, birisi lug'at. Ko'zgu tashqi ko'rinishini nazorat qilishga, ovoz apparatining to'g'ri shakllantirishga va ijro davomida o'zini bemalol, chiroyli tutishga o'rgatsa, lug'at uning ma'naviy dunyosini boyitadi, milliy qadriyatlarimizga yaqinlashtiradi.

Dars jarayonida talaffuz ustida ishlashning eng to'g'ri yo'li - talaba shevasini hech bo'lmaganda kuylayotganda adabiy tilga imkon qadar yaqinlashtirish bilan birga eski o'zbek tilining qoidalari va nozikliklaridan habardor qilish talab etiladi. Nutqning tiniqligi va ta'sirchanligiga erishish bo'lg'usi xonanda mahoratining rivojida asosiy nuqtalardan biridir. Bunga erishish uchun tabalaga dars davomida ko'proq g'azal o'qitishni maslahat berardik. Talabada muntazam ravishda ruboiylar, fard, qit'alar va g'azallar yodlashiga ehtiyoj paydo qilish kerak. Bu talaba xotirasini mustahkamlaydi, zehni o'tkirlashtiradi va uning hofizasini o'ziga xos tarzda shakllantiradi [1, B.48].

Xalqimiz o'tkir zehni, bilimdon, quvvai hofisasi pishiq xonandalarni "o'tkirnafas" yoki nafasi o'tkir deb e'tirof etgan. Biz o'qituvchilarning ham butun ilmiy va ijodiy faoliyatimiz talabaning "o'tkir nafas" bo'lishini ta'minlashga qaratilishi lozim.

Barcha organlarning funksiyasi kabi, ovoz hosil qilish organlarining faoliyati ham o'zaro bir-biriga qanday chambachars bog'liq bo'lsa, xuddi shunday insonning psixologik faoliyatiga ham bog'liqdir. Ushbu mexanizmi mukammal bilmay turib, kuylash asoslarini tushunib yetish, uni takomillashtirish hamda kelajakda yaxshi ashula ayta oladigan professional xonanda tayyorlashga erishish qiyin.

She'riy matnlarni o'qishda ovoz tonini ko'tarish yoki pasaytirish, tovush kuchining kuchayishi yoki kuchsizlanishi vositasida mashq qilib, oddiy jonli so'zlashuv nutqidan farqli o'laroq, yanada yorqinroq, ifodaliroq sifatga erishiladi. Ovozdan ongli foydalana olish, uni istalgan vaqtda kerakli tomonga bura olish, ya'ni ovozni elastik qilish nutqqa sayqal beradi.

Estetik madaniyat tarbiyasida musiqaning o'rni juda katta ahamiyatga ega. Musiqa o'z tabiatiga ko'ra estetik madaniyatning asosidir. Musiqa va adabiyotning ijtimoiy hayotda tutgan beqiyos o'rni qadimlardan ma'lum. U inson dunyoga kelishi bilan ona allasidan boshlab, to umrining oxirigacha quvonchli va tashvishli kunlarida hamrox bo'ladi. Ayni bir paytda musiqa insonni tarbiyalaydi, yaxshilikka undaydi, ozod va obod hayot uchun yashashga o'rgatadi.

Ohang, usul, sur'at va ifodalilik, tovushning kuchi, cho'zilishi, jilolari, kuyning yo'nalishlari va o'zgarishini aniqlash xuddi musiqada bo'lganidek adabiyotda ham aynan asl holicha bo'ladi.

Shuning uchun o'qituvchi darsda talabaning kelib chiqishi va o'sha davrdagi insonlarning oddiy shevalari asosida yaratilganligini uqtirib borsa o'rinli bo'ladi. Shu bilan birga musiqiy layoqat talabada ko'proq namoyon bo'ladi, talabanning fikrlash doirasi oshib boradi.

- *qo'shiqlardagi she'rning sur'at va usul o'zgarishlarini farqlash layoqati.*
- *ifodali o'qish, kuylash va diqqat bilan tinglash layoqati.*
- *qo'shiqlarni taxlil qilish va shaxsiy munosabat bildirish layoqati.*
- *musiqiy ong va tafakkur darajasi.*

Samarali metodika va uzluksiz ta'lim natijasida esa bu sifatlarni ham tez orada rivojlantirish mumkinligi tajribada isbotlandi. G'oyaviy badiiylilikda ijodiy rivojlanish bilan musiqiy layoqat bir-biri bilan uzviy bog'liq va bir-biriga taqazo etadigan jarayondir.

O'qituvchining bosh vazifasi shogirdiga mutaxassislik darsiga va xonandalikka muxabbat uyg'otishdir.

Hozirda milliy san'atimiz, shuningdek doston ijrochiligining tub mohiyatiga alohida e'tiborni qaratish lozim, jumladan:

- *o'zbek xalq doston ijrochiligi tarixi va taraqqiyoti bosqichlari haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan nodir tarixiy, adabiy va ilmiy manbalarni chuqur o'rganish, tahlil etish;*

- *kuylash ijrochilgining nazariy asoslari, o'ziga xos xususiyatlari, uning badiiyligini o'zlashtirish;*

- *milliy ohanglarni ravon va yoqimli qilib ijro qilish malakasini egallash, uning tuzilishi, muzmuni, kayfiyati, xarakteri xushsoz va xushohang jihatlarini idrok qila bilish;*

- *baxshichilik san'atimiz tarixida iz qoldirgan ustoz baxshilarimiz hayoti va ijodini o'rganib, an'anaga amal qilish;*

- *talabalarining doston kuylaganda nafasni o'ziga xosligi, nafa solish, nafas chiqarish ko'nikmalarini to'g'ri shakllantirish;*

- *dars jarayonlarida to'g'ri talaffuz va diksiya ustida ishlash.*

Badiiy xususiyat, bilim va ijodiy jarayonlar ta'sirida talabalarining musiqa savodxonligi qay tarzda o'sa borishiga qarab talabaning ijodiy rivojlanishi ham ortadi va bu sifat musiqiy faoliyatning hamma turlari o'zining ijobiy ta'sirini o'tkazadi.

Yoshlarni ma'naviy merosning doimiy ta'siri vositasida tarbiyalash zamon talabidir.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, musiqa merosimiz xazinasidagi turli janrga mansub asarlar o'z milliy xususiyatlarini saqlagan holda zamon bilan hamnafas bo'lib yashamoqda. Musiqa va san'at bilim yurtlari mutaxassislik fanlari darslarida xalq og'zaki professional san'ati namunalari bilan tanishtirib borish talabalarda ma'naviy merosga samimiy muhabbat uyg'otadi, yoshlarni dostonlarimizni sevish, ajdodlarimiz ideallari kuylangan barhayot misralarni qadrlashga o'rgatadi. Albatta bu jarayonda talabalar ovoz imkoniyatlariga, diapazon va uning ohangdorligiga, jozibasiga, tembriga e'tibor qaratish lozim bo'ladi.

IQTIBOSLAR/СНОСКИ/REFERENCES

1. Alimjonova Z. Sahna nutqi. - T., Fan, 2005.
2. Jumaniyozov R. Nutqiy mahorat. - T., 2005.
3. Nosirova A. Jonli so‘z san’ati asoslari. - T., 2003.
4. Kurbanova U., Kudaybergenova B. va bosh. Yakkaxon qo‘shiqchilik. . O‘quv qo‘llanma – T.: TURON-IQBOL, 2014
5. Qosimov N. Folklor musiqa ijrochiligi. O‘quv qo‘llanma. – T.: Talqin, - 2008.
6. Hayitova O. Xorazm qo‘shiqchilik san’ati durdonalari. – T.: Noshir, - 2009.
7. Xudoynazarov M. Folklor qo‘shiq ijrochiligi, O‘quv qo‘llanma – T.: O‘z FA AK 2006 y.
8. www.ziyonet.uz
9. www.edu.uz

ISSN: 2181-4562
DOI Journal 10.56017/2181-4562

МАДАНИЯТ ВА САНЪАТ ЖУРНАЛИ

I-ЖИЛД, 4-СОН

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО

ТОМ-I, НОМЕР-4

JOURNAL OF CULTURE AND ART

VOLUME-I, ISSUE-4

«Маданият ва санъат» электрон журнали 2023 йил 24 февраль куни № 065356-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Муассис: «IMFAKTOR Pages» масъулияти чекланган жамияти.

Таҳририят манзили: 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55

Эл. почта: tahririyat@imfaktor.uz

Веб-сайт: www.imfaktor.uz